

---

## Rishtonda “Mahalla yettiligi” xodimlari uchun amaliy seminar o‘tkazildi

Seminar ishida tuman hokimi va sektor rahbarlari, "mahalla yettiligi" xodimlari hamda O‘zbekiston Respublika mahallalar uyushmasi mas’ul xodimi S.G‘.Murodovlar ishtirok etishdi.Seminar davomida “Mahalla yettiligi” xodimlari faoliyatini samarali tashkil etish, “Andijon tajribasi”ni ya’ni mahalladagi “Yettilik” ish rejasi (kunlik, haftalik, oylik va choraklik ish rejalar), Mahalla balansi, “Yo‘l xaritasi”, Ijtimoiy mahalla kitobi (Ombor daftari) hamda mahalla yettiligini ish faoliyati bilan tanishilib, tegishli ko‘rsatma va topshiriqlar berildi.

Seminar yakunida bir qator mahalla fuqarolar yig‘inlariga Respublika Mahallalar uyushmasi tomonidan kompyuter jamlanmalari sovg‘a qilindi.

2024-02-24 08:03:03